Ta'lism va tarbiya, ilm - fan, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo'lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashini ta'minlash doimiy ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

O'qituvchi va o'quvchining kutilgan natijaga erishishlari qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi-talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchiga bog'liq.

Shu bilan bir qatorda o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, TSONi, eng asosiysi, o'quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o'quvchini ta'limga markaziga olib chiqish kerak.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsning texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahmiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlar va usullarni biliishi kerak bo'ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida iqtisodiy yo'naliishdagi o'quv yurtlarida maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borishni ko'zda tutadi. Bunda eng avvalo, quyidagilarni aniqlash lozim:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish uchun ijtimoiy-pedagogik asoslar mayjudligini aniqlash;
- ta'lim majmui sifatida nimani anglatishi va qanday tarkibiy qismlardan tashkil topganligini belgilash;
- pedagogik texnologiyaning funksional majmui jarayon sifatida nimalardan iboratligini aniqlash;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadlariga qay darajada mos kelishi va uni baholash mumkinligini ko'rsatib berish;
- pedagogik texnologiyaning majmualar nazariyasining asosiy qonuniyatlariga mosligini nazoratda tutib turish yo'l - yo'rig'ini ishlab chiqish.



Shunday qilib, bugungi kunga kelib, jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib, iqtisodiy va siyosiy mavqeい kundan – kunga ortib borayotgan bo‘lsa - da, biroq ijtimoiy sohada va ayniqsa, ta’lim – tarbiya jarayonida umumiy taraqqiyotdan biroz orqada qolish sezilmoqda. Bunday noxush vaziyatdan chiqib ketish yo‘llaridan biri ta’lim – tarbiya jarayonini qabul qilingan davlat standartlari asosida texnologiyalashtirishdan iboratdir. Bugungi kunda oliy o‘quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o‘qitish metodlari – interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o‘rnini va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maksudov N. X. Umumiyl ximiya. K.x. injenerlik fakulteti studentlari uchun darslik. Toshkent.; «O’qituvchi», 1977 yil.
2. Rustamov X.R. Fizik kimyo: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. –T. «O’zbekiston», 2000. – 487 b.
3. N.G.Rahmatullayev, X.T.Omonov, Sh. Mirkomilov “Kimyo o‘qitish metodikasi”



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОЕДИНЕНИЙ Р-ЭЛЕМЕНТА В МЕДИЦИНЕ И ФАРМАЦИИ

Шарипова Мукарам Хайдаржоновна

Юнусабадский район города Ташкента

5 - школьный учитель химии

Аннотация: В данной статье рассматривается применение соединений р-элемента в медицине и фармации.

Ключевые слова: физиологический, товары народного потребления, физиологическое старение, современная медицина.

Одной из самых актуальных проблем, стоящих сегодня перед человечеством, является профилактика заболеваний, а также продление жизни человека. Сколько бы ни было проведено исследований, до сих пор невозможно определить, умер ли человек физиологически. Люди умирают от различных болезней, стихийных бедствий и других причин.

Расширение производства товаров народного потребления и полное обеспечение потребностей населения, в том числе полное обеспечение нашего населения широким ассортиментом лекарственных средств по доступным ценам, является одной из важных задач, стоящих перед нами.

В целях охраны здоровья человека, являющегося для нас бесценным достоянием, необходимо коренным образом совершенствовать систему здравоохранения, в первую очередь, ее первичные медико-санитарные пункты и сельские врачебные пункты, оказывать услуги на базе скорой медицинской помощи и высоких технологий. Правительство должно сосредоточиться на реализации комплекса мер по дальнейшему развитию специализированных центров.

Как вы все знаете, предпринимаются конкретные шаги по совершенствованию системы ценообразования на лекарственные средства и предметы медицинского назначения, и мы будем продолжать это делать.

Физиологическое старение — это процесс, возникающий в результате внутренних химических изменений, проще говоря, все живые организмы состоят из химических веществ. Жизненно важные процессы, происходящие в них, представляют собой химические реакции.

Итак, вся пища, которую мы едим, лекарства, даже одежда и так далее — это соединения химических веществ. Если подходить к болезням с этой точки зрения, то они обусловлены недостатком или избытком тех или иных веществ в живом организме, а также отсутствием химических реакций, поддерживающих те или иные жизненные процессы. Химия играет важную роль в развитии современной медицинской науки. Благодаря развитию этой науки изучаются многие медицинские источники и можно лечить некоторые серьезные заболевания.

Без глубоких знаний химии невозможно знать влияние химических веществ на организм человека, а без этого невозможно стать квалифицированным врачом. Поэтому студенты-медики должны иметь определенные знания и навыки в области химии, чтобы освоить медицинскую профессию и успешно работать. Химия — одна из естественных наук, изучающая различные состояния материи, наблюдаемые в природе, и то, как они переходят друг в друга.

Для будущих медиков наука химия имеет особое значение, так как любой процесс, протекающий в живом организме, основан на законах химии и физики, имея при этом свои особенности.

В биологии и медицине одной из основных задач, которые мы ставим перед собой, является рассмотрение реализации «р» элементов в соответствии с законами. Благодаря человеческим исследованиям и медицинским потребностям, с момента своего зарождения развивался ряд новых наук, таких как биохимия, биоорганическая химия и биоорганическая химия, биофизическая химия. Это яркое свидетельство органической связи между биологическими и химическими явлениями. На протяжении всей истории человечества медицина развивалась в тесной связи с химией и биологией и опиралась на них.

Молекулы, являющиеся теоретической основой современной медицины, дают начало биологии, квантовой биохимии, молекулярной генетике, молекулярной патологии и другим подобным органам, позволяющим человеческому организму изучать физиологические и



патологические процессы на молекулярном уровне.

Химия позволяет синтезировать природные высокоэффективные препараты, совместимость формологических агентов между собой и решение проблемы оптимальной дозировки, поиск новых высокоэффективных, эффективных препаратов.

Список литературы

1. Аймухамедова Г.Б., Шелухина Н.П. Пектиновые вещества и методы их определения. – Фрунзе: ИЛИМ, 1964, - 120 с.

2. Аксельруд Г.А., Альтшулер М.А. Введение в капилярно – химическую технологию. -М.: Химия, 1974. – 264 с.



LOYIHALASH METODINI KIMYO FANI BILAN BOG'LASH

Muyassar Siddiqova Boqirboyevna
Namangan viloyati Davlatobod tumani
90 – maktab kimyo fani o'qituvchisi
+99893 672 45 86

Annotatsiya: ushbu maqolada loyihalash metodini haqida umumiy ma'lumot va kimyo darslariga joriy etish haqida yoritilgan.


Kalit so'zlar: loyiha metodi, loyiha islab chiquvchilar, individual, o'quv guruh.

Hozirgi kunda har bir darsning zamonaviy ta'lif texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Sababi hozirgi kunni zamon talabi shunday. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 5 – aprel kungi yalpi majlisida har bir pedagog zamonaviy ta'lif texnologiyasining ishlab chiqishi. Qizil hududdagi maktablarni rivojlantirish uchun zamonaviy pedagoglarni jalb qilish haqida aytib o'tdilar. Shunday ekan har bir fan o'qituvchisi o'z ustida ishlashi, zamon bilan hamnafas yashashi kerak.

“Loyiha” metodi - bu ta'lif oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta'lif oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtiroy etadilar. Loyerha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhiy bo'lishi mumkin, lekin har bir loyiha o'quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta'lif oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta'lif oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo'lishi va u ta'lif oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo'llay olishni talab qiladigan topshiriq bo'lishi kerak.

Loyerha o'rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, ta'lif oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo'lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyerha” metodining bosqichlari keltirilgan.



“Loyerha” metodining bosqichlari

“Loyerha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Muhandis – pedagog loyerha ishi bo'yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta'lif oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallarni topshiriqqa oid ma'lumotlar yig'adilar.

2. Ta'lif oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta'lif oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskulalarni rejalashtirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta'lif oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo'yicha qaror qabul qiladilar. Ta'lif oluvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo'yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda



har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Muhandis-pedagog ta’lim oluvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.

4. Ta’lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

5. Ta’lim oluvchilar ish natijalarini o’zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini “Baholash varaqasi”da qayd etiladi. Ta’lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og’zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko’rinishidagi yozma hisobot.

6. Muhandis-pedagog va ta’lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O’quv amaliyoti mashg’ulotlarida erishilgan ko’rsatkichlarni me’yoriy ko’rsatkichlar bilan taqqoslaysidi. Agarda me’yoriy ko’rsatkichlarga erisha olinmagan bo’lsa, uning sabablari aniqlanadi.

Muhandis-pedagog “Loyiha” metodini qo’llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta’lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta’milanishi lozim.

“Loyiha” metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud:

- yakka tartibdagi ish;
- kichik guruhiy ish;
- jamoa ishi.

Loyihalash metodini har bir fanga tadbiq etsa bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfurov D. Malaka oshirish tizimida masofaviy ta’limni tashkil etishning o’ziga xos xususiyatlari” Kasb-hunar ta’limi j. – T.: 2002. №5- 6. – 28-29-b.

2. Sayfurov D. Masofadan o’qitish tizimining shakllanishi va rivojlanishi // Kasb-hunar ta’limi j. – T.: 2004. - №6. – 16-20-b.



PEKTIN ASOSIDAGI POLIMER METALL KOMPLEKSLAR

Tilavova Madina Tulqinovna
Samarqand viloyati Paxtachi tumani
8 – maktab kimyo fani o’qituvchisi
+99893 037 5884

Annotatsiya : ushbu maqolada kimyo fanidan pektin asosidagi polimer metall komplekslar haqida yoritilgan.

Kalit so’zlar : pektin moddasi, kompleks birikmalar, murakkab komplekslar.

Vatanimiz kelajagi ilmiy ishlar tahlili va ularning natijalari, xalqimizning bilim darajasi davr talabiga va tarraqqiyotiga qanchalik mosligiga, qanday mutaxassis yetkazib berish, yoshlarning jamiyatda o’z o’rnini egallashlariga bog’liqidir. Shuning uchun mamlakatimiz rahbariyati ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga katta e’tibor qaratayapti.

“Biz yoshlarga doyir davlat siyosatini hech og’ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko’taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqqosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”- deb takidlaydi Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.

Oxirgi yillarda agrosanoat komplekslarini modernizatsiya qilish va investitsiya loyihibarini amalga oshirish, meva-sabzavotni qayta ishlash darajasini oshirishda zamonaviy yondashuv va yangiliklar kiritish ustuvor vazifalar deb belgilandi. Shunga ko’ra O’zbekiston Respublikasida ilmfanga va ishlab chiqarishga yo’naltirilgan kimyoviy korxonalar qizg’in ravishda rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda.

Pektin kislotalarning noyob xossalari ular tarkibidagi faol funksional guruhlar mavjudligi bilan bog’liq bo’lib, ular metall ionlari bilan (Me) komplekslashuvga olib keladi. Makromolekulyar zanjirning ionogenik bo’lishi sababli, Me ionlari bilan murakkab kompleks hosil bo’lishi pektin molekulyar massasiga bog’liq emas va katalizator almashinish koeffitsienti va muhitning pH qiymati bilan aniqlanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, pektin komplekslarini olishda katta qiziqish uning biologik faolligini namoyon qilish bilan bog’liq bo’lib, bu funksional oziq-ovqat mahsulotlarining ajralmas tarkibiy qismi bo’lib, milliy iqtisodiyot sohalarida amaliy foydalanish uchun keng istiqbollarni ochib beradi.

D-metal ionlari bilan pektinli komplekslarning shakllanishi, aynilsa mis, kobalt va rux ionlari (Cu^{2+} , Co^{2+} , Zn^{2+}) turli shakllarda yuzaga kelganligi sababli, bu jarayonning zarur omili murakkablashuv natijasida molekulalarda konformatsiya o’zgarishlarini nazorat qilishdir.

Albatta, bu asoslash metall ionlarining polimer-ionli birikmalar hosil qilmasdan ham ichki molekulyar elektromagnit inqirozni kuzatishi mumkinligi bilan bog’liq bo’lgan mustahkam printsiplarga asoslanadi.

Komplekslarni olish uchun ikkita asosiy usul ma’lum bo’lib, ulardan biri sintez to’g’ridan-to’g’ri pektin va metal ionlarining eritmalarini keng tarqagan hal qiluvchi bilan aralashtirish va shuningdek, tuz eritmasida metalli ionlarni eritma yoki pektinni eritmasiga metall ion eritmasi bilan eritma shaklida qo’shish orqali amalga oshiriladi.

Pektinlarning issiqlik bilan bog’liq xatti-harakati haqidagi adabiyotda ma’lumot juda kam ma’lumotga ega, ehtimol tahlil jarayoni murakkab va boshqa tomondan kimyoviy tarkibi va pektin moddalarining strukturasining amorf tuzilishi va heterojenitesi tufayli.

Makromolekulalarning metall ionlari bilan kompleks hosil qilish reaksiyalari –bu molekulalararo tikilish (choklanish) reaksiyalarining bir turidir. Hozirgi paytda kationogen va anionogen makromolekulalarining suvli eritmalarida IPK hosil qiluvchi jarayonlarni o’rganish bo’yicha juda ko’p ma’lumotlar yig’ilgan. IPK metal ionlarini tanlab (selektiv) bog’lash xususiystiga ega va yarim o’tkazgich membranalar ajratishda va sorbentlar sifatida qo’llanilishi mumkin. Metall ionlarining polimerlar bilan ta’sirini o’rganish alohida qiziqish uyg’otmoqda. Bu bilan nafaqat „makromolekula – metall ioni” bog’lanish qonuniyatini belgilanadi va balki ular



asosida plyonkalar olishni ham o’rganish mumkin. Bu plyonkalar metall ionlarini ajratib olish va taqsimlashda sorbent va ion selektivlovchi membrana sifatida ishlatiladi. Bu muammolar ushbu kompozitsion materiallarni biologiyada, tibbiyotda qo’llashda va ekologik masalalarni yechishda uzviy bog’liqidir. Shuning uchun interpolimer, sopolimer – metall kompozitsion mahsulotlarni ishlab chiqarish juda dolzarbdir.

Shu munosabat bilan, ushbu ishda yuqori haroratli isitishdagi pektinatlarning harakati ko’rib chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аймухамедова Г.Б., Шелухина Н.П. Пектиновые вещества и методы их определения. – Фрунзе: ИЛИМ, 1964, - 120 с.
2. Аксельруд Г.А., Альтшуллер М.А. Введение в капилярно – химическую технологию. -М.: Химия, 1974. – 264 с.



TABIYI FANLARNI O'QITISHDA STEAM DASTURI

Umirova Gulmira Umirzakovna

Toshkent shahar Olmazor tumani

29 – IDUMI kimyo fani o'qituvchisi

Hoshimova Gulnoza Luxmonovna

Toshkent viloyati Olmazor tumani

243 – maktab fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada tabiiy fanlarning o'qitishda STEAM dasturi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: STEAM dasturi, zamonaviy islohotlar, axloqiy fazilat, ta'lif.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy – axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iborat. Aynan ana shu maqsadga erishish uchun muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev rahnamoligida yangi davrda yashaydigan, yangicha fikrlaydigan, yangi ishlab chiqarish, ijtimoiy sharoitlarda faoliyat ko'rsatadigan, zamonaviy kasbiy mahoratga ega bo'lgan mutahassis kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu jumladan tabiiy fanlarga bo'lgan e'tiborni ko'redigan bo'lsak, Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev tashabbuslari bilan yangi ochilgan Prezident maktablaridir. Bu maktablar aniq va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan maktablar bo'lib, bu yerda o'quvchilar bu fanlarning chuqur o'zlashtirishadi. Bundan tashqari Prezidentimiz tomonida yangi 2020 – yilda tabiiy fanlar jumlasidan aynan kimyo biologiya fanlariga katta e'tibor qaratilishi kerakligini alohida ta'kidlab o'tdilar. Bundan maqsad, o'quvchi qancha tabiiy aniqrog'i kimyo fanining yaxshi o'zlashtirsa, ishlab chiqarish sohasiga juda ulkan xissalarini qo'shish imkoniyati shunchalik ko'p bo'ladi.



STEAM ta'lif tizimi nima?

Agar ushbu qisqartmani yoysak, quyidagilarni olamiz:

STEAM bu — S – science, T – technology, E – engineering, A – art va M – math. Ingliz tilida bu shunday bo'ladi: **tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika**. Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'lifi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta'lif tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan.

STEAM yondashuvi o'quv samaradorligiga qanday ta'sir qiladi?

Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlarida o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatajilar. Ular olgan bilimlarni o'zları “uqib oladilar”.

STEAM ta'lifi nafaqat o'qitish usuli, balki fikrlash tarzidir.

STEAM ta'lif muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu erda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish etarli emas.

STEAM yondashuvi bizning ta'lif va ta'limga bo'lgan qarashimizni o'zgartirmoqda.

Amaliyqobiliyatga e'tiborberib, talabalaro'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Ushbu ko'nikmalar va bilimlar asosiy ta'lif vazifasini tashkil etadi, ya'ni. bu butun ta'lif tizimi nimaga intilishini.

Ta'limga ushbu yangi yondashuv qanday paydo bo'ldi?

Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi maktablar bitiruvchilarning martabalarini e'tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tarzda



shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu erda Art qo'shildi va endi STEAM oxirigacha shakllandi. O'qituvchilar ushbu mavzular, aniqrog'i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo'lib etishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfurov D. Malaka oshirish tizimida masofaviy ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari" Kasb-hunar ta'limi j. – T.: 2002. №5- 6. – 28-29-b.
2. Sayfurov D. Masofadan o'qitish tizimining shakllanishi va rivojlanishi // Kasb-hunar ta'limi j. – T.: 2004. - №6. – 16-20-b.



KIMYO FANINI O'QITISHDA “SVETOFOR” METODIDAN FOYDALANISH

Xoshimova Adolat Nortoji qizi
Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani
91 – mакtab kimyo fani o'qituvchisi
+99894 589 81 41

Annotatsiya: ushbu maqolada kimyo darslarida mavzularni o'qitishda svetofor metoni qo'llash texnologiyasini qo'llash haqida yoritilgan. Maqolani mohiyati shundaki, svetofor metodini qo'llashning afzalliklari, qo'llanilishi, mohiyati haqida yoritilgan bo'lib darslarda qo'llash juda yaxshi samara beradi.

Kalit so'zlar: svetofor metodi, afzalliklari, qo'llanilishi, mohiyati, o'qitish texnologiyalari, majmuaviy integral, tezislar.

XX asr o'qitish texnologiyalari majmuaviy integral bog'liq tizimi bo'lib, unda ta'lim maqsadlari asosida belgilangan ko'nikma-malakalar, o'quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o'zlashtirish, ularda muayyan ma'naviy axloqiy sifatlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan ma'lum tartibga solingan to'plam sifatida aks etadi. Bu o'rinda ta'lim maqsadlarining belgilanishi (xiliga va nima uchun) mazmunini toplash va shu ishlab chiqarish (nima?) ta'lim jarayonini tashkil etish (qanday?) ta'lim metod va vositalarini belgilarini (nimalar yordamida) shuningdek o'qituvchilarning malaka darajasi (kim?) erishilgan natijalarni baxolash metodi (qanday yo'l bilan?) amalga oshirish zarur. Keltirilgan mezonlarning majmuaviy tarzda qo'llanilishi o'quv jarayonining mohiyati va texnologiyasini belgilab beradi.

Hozirgi kimyo faniga bo'lgan talab e'tibor ortib bormoqda. Shunday ekan zamonaviy fan o'qituvchilari o'z oldilariga ulkan maqsad qo'yishlari kerak. Har bir dars jarayonini tashkil etishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishi kerak.

Ta'rifi

Ma'lum mavzuni o'rganish vaqtida o'qituvchi u bo'yicha tezislarni tayyorlaydi (5-7ta, mavzuning murakkabligiga qarab). Tezislar navbatma-navbat doskaga yoziladi (tasviri tushiriladi yoki oldindan tayyorlangan plakatlar shaklida ilib qo'yiladi). O'quvchilarga o'ylab chiqish uchun 1 daqiqa vaqt beriladi. So'ng tezis bilan rozi bo'lgan har bir o'quvchi yashil kartochkani ko'taradi; rozi bo'lmagan – qizil kartochkani; ikkilanayotgan yoki qaror qabul qilishda betaraf bo'lishni xohlayotgan – sariq kartochkani yuqoriga ko'taradi. Agar ishtirokchilar fikri asosan bir-biriga mos keladigan bo'lsa, o'qituvchi navbatdagi tezisga o'tadi. Agar tezis muhokama qilinishi talab qilsa, ishtirokchilardan o'z qarorlarini asoslab berish iltimos qilinadi.

Foydalanish doiralari

Tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda, topshiriqlar ma'lum o'quv mavzusiga va ma'lum yoshdag'i o'quvchilar guruhiiga moslashtirilgandan keyin.

Afzalliklari

Ushbu mashq barcha o'quvchilarning fikrini bilib olishga imkon beradi: hech kim oddiygina tomoshabin bo'lib qolmaydi. Ishtirokchilarning ko'pchiligidagi mashq boshlanganidan keyin birozdan so'ng nuqtai nazaradagi tafovutlar sabablarini bilish va o'z fikrini asoslash bo'yicha kuchli qiziqish paydo bo'ladi. O'quvchilarning nutqini, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, asoslash qobiliyatini rivojlantiradi.

Qiyinchiliklari

Agar vaqt cheklowlari sababli munozara o'tkazishga imkon bo'lmasa, ushbu uslubdan foydalanish kerak emas. Agar tyezislarning ko'pchiligi bo'yicha ishtirokchilar fikri bir-biriga mos kelsa, mashqqa bo'lgan qiziqish tezda yo'qoladi. Mashq o'tkazish uchun resurslarni puxtalik bilan tayyorlashni talab qiladi.

Masalan,

– Davriy qonun kashf etilgan vaqtida 63 ta element ma'lum edi. Hozirda 105 ta element ma'lum. Olimlarning fikriga ko'ra sun'iy element hosil qilish davom etib, elementar gaz 217 taga yetishi mumkin. U holda 218 element IX davrning oxirgi elementi bo'ladi.

– Davriy sistemada 5 ta element atom og'irligi ortib borishiga nomuvofiq joylashgan. Ular argon, kobalt, tellur, toriy, uran.

– 43, 61, 85, 87 va urandan keyingi hamma elementlar tabiatda uchramaydi. Ular sun'iy yo'l



bilan olingan.

– Davriy sistemadagi elementlarning joylashish tartibini elektron modeli asosida birinchi bo‘lib D.I.Mendeleyev do’sti va safdoshi, chex kimyogari

Boguslav Brauner tushuntirdi.

– Lantanoid va aktinoidlar davriy jadvalda noqulaylik tug‘dirgani uchun alohida qatorga bir katakka joylashtirishni 1920 yilda daniyalik fizik Nils

Bor taklif etgan.

Shunday ma’lumotlar beriladi. O’quvchilar to’g’ri noto’g’ri deb javob beradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – T.: —Iste‘dod|| jamg’armasi, 2008.
2. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar.– T.: —Fan va texnologiyalar|| nashriyoti, 2011.



TASHQI MUHIT OMILLARINING YURAK FAOLIYATI VA QON BOSIMIGA TA'SIRI

Atavulloyeva Nigina Qobilovna

Buxoro viloyati Kogon tuman

7-maktabda biologiya fani o'qituvchisi

Telefon:97-851-79-78

Annotatsiya: Ushbu maqolada tashqi muhit omillarining yurak faoliyati va qon bosimiga ta'siri va inson salomatlini asrab avaylash haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Tashqi muhit, yurak faoliyati, qon bosimi, gipertoniya, ateroskleroz, ishemiya, infarct, insult.

Odam organizmi o'zi doimiy yashaydigan joyning iqlimiga , ob –havosiga moslashadi .Ob –havoning inson salomatligiga ,uning mehnat qobiliyatiga va ruhiy kayfiyatiga ta'siri qadimdan ma'lum. Odam kuchsizlanganda , ba'zi su-runkali kasalliklar bilan og'riganda uning organizmi ob- havoning o'zgarishiga sezgir bo'lib qoladi, uning organizmi go'yo barometr singari ob –havo biroz o'zgarsa ham ta'sirlanadi: bazi odamlarning boshi aylanadi va og'riydi ,boshqalarning bo'g'implari og'riydi,ayrimlar yuragi sanchish va gi'jimlab og'rishni sezadi,eski bitib ketgan jarohatlarda ham og'riq seziladi.

Odam salomatligining ma'lum darajada ob –havoga bog'liqligini olimlar ko'pdan berib o'rganmoqdalar.Keyingi yillarda bu masalaga e'tibor ancha kuchaydi.Bu odamdag'i kasalliklarni ob –havo omillari yordamida davolash va oldini olish bilan shug'ullanadigan tibbiyot klimatologiyasi fanining rivojlanishiga sabab bo'ldi.Buning natijasida ob-havo sharoiti qulay bo'lgan joylarda dam olish oromgohlari va xiyobonlar tashkil etildi.

Ob- havoning noqulay o'zgarishlari ayniqsa yurak va qon tomir kasalliklari bilan og'rigan odamlarga ko'proq ta'sir etadi.

Dengiz sathida odam tanasiga 1,003 kg/sm² bosimm ta'sir qiladi . Bunda o'rta bo'yli odam tanasini taxminan 1 t massadagi havo bosib turadi. Ammo odamga sezilmaydi,chunki gavdaning ichki bosimi tashqi muhit havosining bosimiga qarshi ta'sir ko'rsatadi.Sog'lom odam organizmining ichki bosimi bilan tashqi muhit havosining bosimi o'rtasida normal muvozanat bo'ladi.

Atmosfera bosimi ortganda tashqi muhit havosining bosimi va odam gavdasining ichki bo'shliqlaridagi bosim o'rtasida farq paydo bo'ladi. Bunday vaqtida ayniqsa ,Gipertoniya va yurakning boshqa kasalliklari bilan og'rigan odamlarda bosh og'rig'i ,bo'g'implarda ,yurakda og'riq seziladi. Arterial qon bosimi ko'tariladi.Ayniqsa ,qon bosimi ko'tarilgan keksa odamlarda miyaning mayda qon tomirlari yorilishi tufayli miyaga qon quyilishi mumkin.Buning natijasida qo'l va oyoqlar shol bo'lib qolishi mumkin.

Tashqi muhit harorati odam organizmiga doimiy ravishda ta'sir ko'rsatib turadi. Odam o'zi yashaydigan ob-havo sharoiti haroratiga moslashadi.Buning natijasida uning organizmi huddi rele o'rnatilgan termostatga o'xshab ishlaydi.Organizmda moddalar almashinuvu natijasida hosil bo'ladigan energiyaning tashqariga ajraladigan qismining miqdori tashqi muhit haroratiga qarab o'zgaradi. Shu bilan organizm issiq va sovuq sharoitda harorati doimiy saqlanishini ta'minlaydi.Organizmning bu xususiyati bosh miyaning gipotalamus sohasidagi nerv markazlari tomonidan boshqariladi.

Issiq vaqtida tanadagi qon tomirlari kengayadi.Qon tananing yuza qismidagi tomirlarda va to'qimalarda to'planib , organizmdan tashqi muhitga issiqlik ajralishi ko'payadi.Bu issiqlikning nurlanishi ter bezlaridan ajralgan suyuqlikning bug'lanishi orqali amalga oshadi. Ammo tashqi muhit haroratining ko'tarilishi bilan bir vaqtida havoning namligi ortsu ,ter bezlaridan ajraladigan terner bug'lanishi qiyinlashadi va organizmdan issiqlik ajralishi kamayadi.Natijada issiq urish holati ro'y beradi.Bunday vaqtida odamning yurak urishi va pulsi tezlashadi,u holsizlanib o'zini yomon his etadi,boshi aylanadi va og'riydi,tana harorati ko'tariladi.Ayrim hollarda odamm xushidan ketadi.Keksalarda miya qon tomirlari yorilishi mumkin.

Sovuq vaqtida tananing tashqi yuzasidagi qon tomirlari torayadi va organizmdan tashqi muhitga issiqlik ajralishi kamayadi. Bunday vaqtida odamning terisi ,ayniqsa yuzlari oqaradi,



bir oz qaltiraydi va sovuq sezadi.Lekin organizm haroratining doimiyligi saqlanib qoladi.Ammo yurak- qon tomir sistemasi kasalliklari bilan og’rigan odamlar uchunsovqotish ancha xavfli. Chunki sovuq sharoitda tanada qon aylanishini ta’minalash uchun yurak normaga nisbatan ko’p ish bajarishga majbur bo’ladi va u zo’riqadi.

Havoning namligi odam organizmiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi.Odamning yashashi va ish faoliyati uchun havoning namligi va harorati ma’lum bir muvozanatda bo’lishi muhim ahamiyatga ega.Havoning nisbiy namligi 40-60%, harorati +18-20` bo’lishi odam organizmi uchun eng qulay sharoit hisoblanadi.

Havo quruq bo’lsa ,arterial qon bosimi ortadi.Shuning uchun qon bosimi bor odamlar bunday sharoitda o’zini yomon his qiladi.Shamol ham kuchsiz va kuchli bo’lishiga ko’ra odam organizmiga turlicha ta’sir ko’rsatadi.Yoz faslida esadigan kuchsiz shabada odamga yoqimli ta’sir etsa ,qattiq shamol salbiy ta’sir qiladi.Ayniqsa , yurak-qon tomirlari kasallangan odam qattiq shamol vaqtida o’zini yomon his etadi,darmoni quriydi,kayfiyati pasayadi ,arterial qon bosimi ko’tarilishi natijasida boshi og,riydi,yurak urishi tezlashadi, nafasi qisadi.

Yurak va qon tomir kasalliklari oldini olish xalqimiz sog’ligini mustahkamlashda ,ish qobiliyatini yaxshilashda ,o’rtacha umr ko’rishni uzaytirishda kata rol o’ynaydi.Chunki odamning ish qobiliyatipasayib ,nogironlikka o’tib qolishining, umri qisqarishining sabablari ichida yurak qon tomir kasalliklari birinchi o’rinda turadi.

Yurak va qon tomir kasalliklarining ko’p uchraydigan turlariga **ateroskleroz** (qon tomirlari ichki yuzasida yog’ va tuz moddalari to’planishi oqibatida tomirlar qattiqlashib ,mo’rtlashib va torayib qolishi), **gipertoniya** (arterial qon bosimining ko’tarilishi) , **yurakning ishemik kasalligi** (yurak muskullarida qon aylanishning buzilishi tufayli sodir bo’ladi) , **yurak infarkti** (qon aylanishi buzilishi tufayli yurak muskullarining ma’lum qismini yemirilishi) , **insult** (bos miyaga qon quyilishi) kabilar kiradi. Bularidan tashqari , yoshlarda ayniqsa mакtab yoshidagi bolalarda ko’p uchraydigan angina ,surunkali tanzilit (bodomcha bezlarining yallig’lanishi) va bular oqibatida kelib chiqadigan yurakning yallig’lanish kasalliklari tufayli odam yoshlik chog’idanoq ish qobiliyatini yo’qotib ,o’zi xoxlagan kasbni egallay olmasligi mumkin.

Yuqorida aytib o’tilgan yurak qon- tomir kasalliklarini yuzaga keltiruvchi sabablar quyidagilar : jismoniy mashqlarni doimiy bajarmaslik,ovqatlanish qoidalariga amal qilmaslik ,burun ,tomoq, nafas ,yo’llari shamollash kasalliklar asoratlarini qoldirmaslik ,tish kasalliklarini o’z vaqtida davolamaslik va boshqalar.

Bunday noxush holatlarni oldini olish uchun organizmni zararli odatlardan saqlagan holda sog’lom turmush tarziga rioya qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

- 1.B.Aminov , T . Tilovov “Odam va uning salomatligi ” darslik Toshkent “O’qituvchi ” 1996
- 2.A. M.Suzmer,O .L Petrishina anatomiya fiziologiya gigiyena o’quv qo’llan- ma .
- 3.A.Axmedov ,S.Burxonov ,J.Qo’nishhev Biologiya . Odam anatomiyasи va fiziologiyasi : darslik “ Zamin nashr ” 2021



KIMYO FANINI O’QITISHDA O’QUVCHILARDA KREATIV FIKRLASHNI
RIVOJLANTIRISH

Eshonxo‘jayeva Xurshida Abdusamatovna

Toshkent shahar Bektemir tumani

293-maktabning kimyo fani o‘qituvchisi

Telefon:+998(94) 686-46-22

xurshidaeshonhojaeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kimyo fanidan dars beradigan o‘qituvchilar uchun metodik yordam sifatida turli tavsiyalar berilgan. Avvalo fan yuzasidan dars jarayonida o‘quvchilarni qanday qilib kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularni har bir fikrini inobatga oлган xolda to‘g‘ri talqin qilish, o‘quvchilarni butun hayoti davomida muhim bo‘lgan o‘z g‘oyalarini ishlab chiqishga imkon berish va uni hayotga qanday tadbiq etishni o‘rgatish, aynan kimyo fanida mavzularni har birida o‘quvchilarni darsga qanday jalb etish va ularni qiziqishi yuzasidan kreativ fikrlashga undovchi savollarni o‘rtaga tashlash, erkin fikrlay olish va o‘z fikrlarini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Kreativ fikrlash, kreativlikni rivojlantirish, motivatsiya, PISA, mantiq, ijodiy fikrlash, yangi g‘oya, fikr erkinligi, farzand tarbiyasi.

Har bir jamiyatning kelajagi ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Zero, inson qalbiga yo‘l ta’lim va tarbiyadan boshlanadi.

Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi. Kitob o‘qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo‘q.

Sh.Mirziyoyev

1. Kreativ fikrlashda ta’limning o‘rnini qanday?

Ta’limning asosiy vazifasi o‘quvchida jamiyatda muvaffaqiyatlari hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo‘lishi kerak bo‘lgan muhim ko‘nikmadir. Bu ko‘nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o‘zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari «XXI asr» ko‘nikmalariga ega ishchilarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko‘maklashadi. Umuman olganda, bugungi o‘quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo‘limgan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etilishi kutilmoqda. O‘quvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakillantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkoniyatini beradi.

Maktabda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Maktab yoshlar uchun o‘z qobiliyat va ko‘nikmalarini, shu jumladan ijodiy talantlarini kashf etishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, kreativ fikrlash o‘quvchilarning ta’lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo‘llab-quvvatlaydi. O‘quvchining xayoli va qiziquvchanligi ta’lim jarayonida qo‘l keladi: ijodiy fikrlash shu tariqa o‘zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta’lim maqsadlari kontekstida ham.

Maktabda o‘quvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun, barcha o‘quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta’limning yangi shakllari yo‘lga qo‘yilishi zarur. Bu ayniqsa ta’lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o‘quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o‘z fikrini aytga olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi.

Kimyo darslarida o‘quvchilarni qiziqishini uyg‘otish, aynan fikrlash erkinligiga qo‘yib berish orqali ham erishish mumkin. Agar endigina 7-sinfda kimyo fani ular uchun yangi fan ekanligini



hisobga olgan holda, o‘quvchilarga shunday imkoniyat berish kerakki, hatto eng faol o‘quvchidan tortib bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni ham fikrini eshitib ko‘rish, agar fikrini ochiq namoyon eta olmaydigan o‘quvchilar bo‘lsa “Ustozga xat” tarzida ularni qiziqishlarini yoki fikrlash doirasi qanchalik ekanliklarini bilib olish mumkin. Keyinchalik esa mana shu fikrini bildira olmaydigan o‘quvchilarni g‘oyalari sinfdoshlari bilan ulashib, ularni rag‘barlantirib, faol o‘quvchilar safiga kirishga undash mumkin. Sinfda mana shunday o‘quvchilardan ajoyib kreativ g‘oyalalar paydo bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi buni anglamasa, uni fikrini eshitmasa yoki inobatga olmasa shu g‘oyalalar yashirinchha yo‘olib ketishi mumkin. Bu esa ustoz va murabbiyning pedagogik mahoratiga ham bog‘lidir.

2. Kreativ fikrlash nima?

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha “create” so‘zidan olingan bo‘lib, yaratish ma’nosini bildiradi.

Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamirida originallik, noodatiylik va erkinlik yotadi.

Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi. Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma’naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, o‘rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi.

Berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo‘lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g‘oyaning paydo bo‘lishi asosiy shartdir.

Masalan, ingliz tilida so‘zlarni yodlab, grammatika qoidalarini "suv qilib ichib yuborgan" bo‘lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor.

“Tasavvur-bilimdan muhim” deganida Albert Eynshteyn aynan mana shu jihatni nazarda tutgan.

Ko‘pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berish lozim.

Eng ajablanarli jihatni ta’lim-tarbiya jarayoni ham bolalarni bir xil fikrlashga o‘rgatib qo‘yar ekan. Mashhur ixtirochi va kashfiyotchilarning aynan maktabdagagi ta’lim jarayonidagi bir xillikka ko‘nikolmagani, qoliplarga sig‘maganini ko‘rish mumkin. Masalan, A.Eynshteynnning maktabdan haydalishi, D.Mendeleyevning kimyo fanidan “uch” olgani bunga misol bo‘ladi.

PISA butun dunyodagi 15 yoshli o‘quvchilar uchun tegishli kreativ fikrlash tavsifidan foydalanadi.

Umuman olganda, tadqiqotchilar kundalik ijodkorlik amaliyot va ta’lim orqali takomillashtirilishi mumkin degan xulosada yakdildir. Demak, tug‘ma talantning ahamiyatini kamaytirish hamda takomillashtirish mumkin bo‘lgan shaxsning kreativ fikrlash qobiliyatiga ko‘proq urg‘u berish maqsadida PISA tadqiqoti kreativ fikrlash yo‘nalishining baholashi mana shu kichik kreativlik bilan bog‘liq vazifalarga asosiy e’tiborni qaratadi. Kreativ fikrlashning bu turi nafaqat insho yozish yoki rasm chizish kabi asosan ichki dunyoni aks ettirish talab qilinadigan ta’lim kontekstiga, balki g‘oya berish masalalarini tahlil etish, jamiyatdagi muammolarni hal etishga aloqador bo‘lgan kengroq sohalarga ham taalluqlidir.


Masalan, oddiygina topshiriq, vazifada bir parcha qog‘ozdan foydalanishning ehtimoliy variantlari so‘ralganda, «yozish, truba yasash, qog‘oz samolyotini yasash, izolatsiyalovchi



modda sifatida ishlatish» deb javob bergan o‘quvchi «yozish, chizish, printerdan chiqarish» (ya’ni, bularning barchasi ayni, «qog‘oz tasvir sifatida», toifasida) deb javob bergan o‘quvchiga qaraganda g‘oya berish ko‘nikmasining yuqoriroq darajasini namoyish qiladi. Kreativ fikrlash testining turli g‘oyalarni ishlab chiqish jihatni o‘quvchilarning turli sohalar uzra qayishqoqlig bilan fikrlash qobiliyatiga diqqatni tortadi: masalan, muammoga turli yechim topish, hikoya uchun turli g‘oyalalar berish yoki g‘oyani turli usulda ifoda etish orqali. Ushbu jihatga aloqador vazifalarda, o‘quvchilarga ochiq senariy taqdim etiladi, ulardan bir-biridan farqli ikki yoki uchta javob berish so‘raladi. Shuni ta‘kidlash lozimki, o‘quvchi bergan g‘oyalarning turfaligini baholash javoblar muayyan vazifaga bog‘liq bo‘ladi.

3.Kimyo darslarida mavzular yuzasidan kreativ fikrlashga undovchi savollar.

Kimyo darslarida 7-sinfan to 11-sinfgacha bo‘lgan mavzularning har biriga shunday g‘oyani ilgari surish kerakki, o‘quvchilar darsni ichiga kirib ketishsin va mavzuni hayotga tadbiq etish kerakligini va u hayoti davomida kerak ekanligini his etishi kerak. Masalan 7- sinfda birinchi kundan boshlab o‘quvchilarga mana shunday qog‘oz tarqatiladi.



Har bir o‘quvchi hali ular uchun yangi fan bo‘lgan kimyo fani haqida o‘z tasavvurlarini mana shu 3 ta doira ichida tasvirlashlari kerak. Bu esa o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri talqin qilib o‘quvchilarning ham kreativ fikrlashga undaydi, ham uni psixologiyasini tushunib oladi.

Yana bir topshiriq. Aziz o‘quvchilar savol! *Shunday mashina ishlab chiqaringki u havoga ham insoniyatga ham zyon yetkazmasin va oilangiz uchun mos bo‘lsin.*

O‘quvchilar fikri tinglanadi. O‘z fikrini daftarga yozishi ham mumkin. Go‘yalarini ishlab chiqarish ketma-ketligi asosida talab qiling.(STEM yondashuv)

Masalan: Kimyoviy kreptogramma jadval asosida elementlar nomini toping.

1.Moddalarning kimyoviy xossasini o‘zida saqlovchi eng kichik zarracha? **Javob:** Molekula (**sonlar**) **1,2,3,4,5,6,3,7**

2.Atomning muayyan turi? **Javob:** Kimyoviy element (**sonlar**) **5,8,1,9,2,10,8,9, 4,3,4,1,4,11,12**

3.Davriy sistemadagi birinchi element?**J:Vodorod (sonlar)** **10,2,13,2,14,2,13**

4.Havo tarkibida eng ko‘p uchraydigan gaz? **Javob:** Azot (**sonlar**) **7,15,2,12**

5.Qattiq holdan to‘g‘ridan to‘g‘ri gaz holatiga o‘tish hodosasi?

Javob:

Sublimatlanish (sonlar) **16,6,17,3,8,1,7,12,3,7,11,8,18**

6.Tartib raqami 17 bo‘lgan element. **Javob:** Xlor (**sonlar**) **19,3,2,20**

Kalit sonlar asosida ushbu moddalar nomini toping!

5	8	16	3	2	20	2	13
7	11	4	8	3	7	16	6
3	13	3	12	12	13	1	17
16	8	4	8	8	8	8	11
8	9	11	9	11	9	9	8
9							9
	11	7	12	20	8	9	

Yana bir “Kamyoviy topishmoq”

Savol: Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan moddadan xosil bo‘ladi, marmartoshdan ham ajratib olish mumkin, o‘simliklar uchun muhum ahamiyatga ega bo‘lgan modda qaysi?

Davriy sistema bilan ishlab javobi topiladi. **Javob:** Shu tartib raqamga ega bo‘lgan elementlarning bosh harflarida yashringan so‘z.



19,13,88,5,8,10,13,26 18,11,32,49,66,88,49,66

Organika bo‘limida quyidagicha savollar berish mumkin. C_nH_mO_n dan doydalanib qanchali ko‘p organik moddalarni yoza olasiz? Oddiy kreativ fikrlashga undovchi savollardan biri

Masalan: CH₃NO₂, C₆H₅NO₂, ...

Yoki H va O dan foydalanib moddalarni yozing!

Masalan: H₂O, H₂O₂, HOH, H₂, O₂...

Bu topshiriqlarni har bir sinfda o‘tkazib ko‘rishingiz mumkin.

Yuqoridagi va shunga o‘xshash so‘rovnoma, o‘quvchilar naqadar o‘zlarining ijodiy qobiliyatlariga ishonishi haqida ma’lumot yig‘adi. Ijodkorligiga ishonch shkalasi o‘quvchining kreativ fikrlay olish qobiliyatiga umumiylashtirish va turli sohalarda ijodiy fikray olish qobiliyati borasidagi fikrlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iqtisod fanlari doktori U.Sharifxodjayev hamda D.Norboyevning umumiylashtirish ostida. M.Maxsudov – Tarjimon. “PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash doirasida.” Toshkent 2020

2. Beghetto va Kaufman , 2007 (17) . Beghetto va Plucker 2006 (18) . Hwang 2015(19) Lucas va Spencer 2017 (15) Beghetto, Baer va Kaufman 2015 (20)

3. Sh.M.Mirziyoyev «Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birlashtirish barpo etamiz»

4. Axror Nazarov “Qiziqarli kimyo”



**KIMYOVIY BOG’LANISH MAVZUSINI O’QITISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O’RNI**

Kalonova Nigora Sadritinovna

Buxoro viloyati G’ijduvon

46 – maktab kimyo fani o’qituvchisi

Ergasheva Raxima Rajabovna

Buxoro viloyati G’ijduvon tumani

46 – maktab kimyo fani o’qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada kimyoviy bog’lanish mavzusini o’qitishni takomillashtirishda pedagogik texnologiyalarning o’rni va ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so’zlar: Kimyoviy bog’lanish, dars muqaddas konsepsiysi, loyihalashtirish, sinkveyn, charxpalak.

Hozirgi vaqtida maktabda o’tiladigan har bir soat dars xalq ta’limi vazirligi tomonidan tavsiya etilgan “Dars muqaddas” konsepsiysi asosida tashkillashtirilgan holda o’tilmoqda. O’qituvchi dars o’tishdan oldin darsning har bir tarkibiy qismiga yangi metodlarni tizimli qo’llashni (loyiha)lashtirib olishi lozim. Shunga muvofiq kimyo fanidan darslarni tashkillashtirish va olib borishda pedagogik texnologiyaning quyidagi metodlarini qo’llaganda o’quvchilarga Kimyoviy bog’lanishni etkazib berish yaxshi samara beradi deb hisoblaymiz. Bunga ko’ra darsning tashkiliy qismida metod qo’llash shart emas. O’tilgan mavzuni so’rash qismida “Venn diagrammasi” va “Sinkveyn” metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida “Insert”, “Pinbord” va “Zinama-zina” texnalogiyasi elementlarini, darsning yangi mavzuni mustahkamlash qismida “3r


Gidrolizning ahamiyati	Gidroliz turlari

Guruh a’zolariga kartochkalar tarqatilgandan so’ng mavzuga oid savollar navbat bilan o’qib eshittariladi (2-ilova). O’quvchilar esa guruh bilan kelishgan holda tog’ri javob tushirilgan kartochkani ko’taradilar.

2-ilova.

1.	Gidrolizga uchraydigan moddalarning ko’rsating?
2.	Gidroliz nima?
3.	Gidroliz turlari?
4.	Gidrolizga uchramaydigan moddalar qaysilar?

Har bir to‘g’ri javob ^{252}Cf , Pt, Ag belgisi tushirilgan kartochkalar orqali rag’batlantirib boriladi.



Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi vaqtida barcha fanlar singari kimyo fanini o’qitishda ham o’quvchilarning fanga bo’lgan qiziqishini oshirish va bilimini kuchaytirishda pedagogik texnologiyalarni qo’llash yo’li bilan kerakli natijalarga erishilmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfurov D. Malaka oshirish tizimida masofaviy ta‘limni tashkil etishning o’ziga xos xususiyatlari” Kasb-hunar ta‘limi j. – T.: 2002. №5- 6. – 28-29-b.
2. Sayfurov D. Masofadan o’qitish tizimining shakllanishi va rivojlanishi // Kasb-hunar ta‘limi j. – T.: 2004. - №6. – 16-20-b.



TABIY POLISAXARIDLARNING AJRATIB OLİSH VA TOZALASHNING UMUMIY USULLARI

Soxibjon Madumarov Turg'unboyevich

Farg'ona viloyati So'x tumani

15 -maktab kimyo fani o'qituvchisi

+99899 725 72 62

Annotatsiya: ushbu maqolada tabiiy polisaxaridlarning ajratib olish va tozalashning umumiy usullari, olinishi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: mevadan pektin olish, sitrus meva po'stlog'i, viskozimetriya.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev takidlaganidek, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. Vatanimiz kelajagi ilmiy ishlar tahlili va ularning natijalari, xalqimizning bilim darajasi davr talabiga va tarraqqiyotiga qanchalik mosligiga, qanday mutaxassis yetkazib berish, yoshlarning jamiyatda o'z o'rnnini egallashlariga bog'liqdir. Shuning uchun mamlakatimiz rahbariyati ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga katta e'tibor qaratayapti. Shunga ko'ra, yuqori malakali kadrlar tayyorlash davlat siyosati darajasidaga ko'tarilmoqda.

I. Mevadan pektin olish.

Kerakli asbob va reaktivlar: Sitrus meva po'stlog'i – 50 gr, HCl(0.03 N) 200 ml, etanol 500ml, Pb(CH₃COO)OH, ammiak, limon kislota, shakar, 500ml li kolba, suv hammomi, sentrifuga, plastmassa qolip.

Ishni borishi: Go'sht maydalagichda maydalanib matoli qopchaga solinib stakanga solib ustidan efir moyi, pigment va boshqa qo'shimchalarni yo'qotish uchun spirt quyiladi. Stakan soat oynasi bilan berkitilib 1 soat davomida 60-70° C gacha qizdirilgan suv hammomiga qo'yiladi. So'ng xomashyo Byuxner voronkasida filtrlanadi va qaytadan spirt quyiladi. Bu ish spirtli ekstrakt och sariq rangga kirgunga qadar amalga oshiriladi. Yuvilgan xomashyo 500 ml li kolbag'a solinib 200 ml HCl qo'shiladi va qaynayotgan suv hammomida 1soat qizdiriladi. Qaynoq eritma paxtali voronka orqali filtrlanib, voronkada qoldiq ikki marta issiq suv bilan yuviladi. Filtrat sovutilib ammiak bilan kuchsiz kislotali muhitgacha neytrallanadi va suv hammomida (vakuumda) 60-80 ml qolguncha bug'lataladi. Cho'kmaga tushgan pektin sentrifuga qilib ajratib olinadi. Tozaroq pektin olish uchun pektin suvda qizdirib eritiladi va spirt bilan cho'ktirilib cho'kma havo yoki termostatda quritiladi va tortiladi.

Sifat reaksiya.

Erlix usuli bo'yicha galakturon kislotani aniqlash. Shpatelda oz miqdorda pektin olib 3-4 ml suvda eritiladi va bir necha tomchi Pb(CH₃COO)OH qo'shib qaynayotgan suv hammomida qizdiriladi. Agar dastlab hosil bo'lgan oq cho'kma asta-sekin qizg'ish-qizil rangga bo'yalsa kislota borligini ko'rsatadi.

Pektinni jele hosil qilish qobiliyati. Pektin farfor idishga solinib 50 ml suv quyilib, ma'lum bir vaqt bo'ktirib qo'yiladi, so'ng 25 gramm shakar solinib 10-15 minut qum hammomida kuchli qizdiriladi. Hosil bo'lgan aralashmaga 1ml 40%li limon kislota qo'shiladi. Yaxshilab aralashtirilib plastmass qoliplarga solinadi. 2-3 soatda jele qotadi va tatib ko'rish mumkin.

Polimer eritmalarining qovushoqligini asosida polimerlarning molekulyar massalarini aniqlash va u hisoblash (Viskozimetrik usul)

Ishning maqsadi: Eritmalarning qovushoqligini o'rganish orqali polimerning molekulyar massasini topish

Reaktivlar: Poliizoprenning benzoldagi eritmasi ($C = 0.25\text{g/dl}$), polimetilakrilatning benzoldagi, polistirolning toluoldagi, poliakrilonitrilning dimetilformamiddagi eritmalar, poliakrilamid, polivinilpirrolin, polistirol, polimetilmekrifikat yoki boshqa polimerlarni 0.2 g/100ml konsentratsiyali eritmalar.

Idish va asboblar: termostat, modifikatsiyalangan Ubbelode viskozimetri, sekundomer, rezina grusha, 100ml hajmli silindr, 5 va 10ml hajmli pipetka, 50ml hajmli kolba, sovutgich.

Ishning bajarilishi: Ishning bajarilishi uchun polimer, erituvchi va harorat ilova qismida keltirilgan jadvalga asosan tanlanadi. Bu jadvalda tajriba sharoiti uchun Mark Kun Xauvnik



tenglamasining K va α qiymatlari ham keltirilgan.

Avvalo toza quritilgan viskozimetr(1)ga erituvchi quyiladi, sharcha(4)ning yuqori qismigacha ,(3) naycha berkitilib turgan holda, rezina nok bilan ko'tariladi, naychaning og'zi ochilganda erituvchi sharchadan viskozimetрning pastki qismiga oqib tusha boshlaydi. Sharchaning tepasiga qo'yilgan belgidan to (2) kapillyarning yuqori qismidan oqib o'tish vaqtı 3-4 sekundomer yordamida o'lchanadi. Shundan so'ng toza, quritilgan viskozimetrga birinchi eritma quyiladi. Eritmaning hajmi(odatda 7-8ml) viskozimetрning kapillyari, yuqori va pastki sharchalarning to'lishiga yetarli bo'lishi kerak. Polimer eritmasi pipetka orqali aniq o'lchanishi lozim. Birinchi quyilgan eritmani ham xuddi erituvchi bilan ishlangan tartibda viskozimetr sharchasidan o'tish vaqtı o'lchanadi. Polimer eritmalarini suyultirish shu viskozimetрning o'zida bajariladi. Buning uchun dastlab olingan eritmaning ustiga teng hajmli pipetka orqali erituvchi quyiladi, 15-20 minut eritmani muvozanatga kelguncha va uning harorati termostat haroratiga tenglashguncha kutib turiladi. Eritmani suyultirish kamida 3 marta amalga oshiriladi. Eritmaning har bir konsentratsiyasida bajariladigan ishlar xuddi yuqorida bayon etilganidek bajariladi.

Sekundomer bilan suyuqlikning oqib o'tish vaqtı aniqlanadi. So'ngra C₁ konsentratsiyali polimer eritmasing oqib o'tish vaqtı uch marotaba o'lchanadi va o'rtachaqiyati yozib qo'yiladi. Viskozimetr quritilib, C₂ konsentratsiyali suyultirilgan polimer eritmaside solinib, termostatda 10 minut davomida saqlanib, belgilar orasidagi oqib o'tish vaqtı aniqlanadi, yana polimer eritmasing suyultirish davom ettiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аймухамедова Г.Б.,Шелухина Н.П. Пектиновые вещества и методы их определения. – Фрунзе: ИЛИМ, 1964, - 120 с.
2. Аксельруд Г.А., Альтшулер М.А. Введение в капилярно – химическую технологию.-М.: Химия,1974. – 264 с.



**MODDA FORMULARINING GRAFIK TASVIRI ORQALI ULARNING FAZOVIY
TUZULISHINI VA ULARDAGI ELEMENT ATOMLARINING VALENTLIGI VA
OKSIDLANISH DARAJASINI TOPISHNING ENG SAMARALI USULI**

Sadullayev Xudayberdi

Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi
32-son umumta’lim maktabining
Kimyo fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada asosan 1.Moddalarning rangini 2.Tuzilshini 3.Molekulalarning modellarini 4.Fazoviy tuzilishini 5.Valentligini 6.Oksidlanish darajasini oson topish yo’llari ko’rsatib berilgan. Men o‘z tajribamdan kelib chiqqan holda modda formulalarining grafik (struktura) tasviri orqali ularning fazoviy (geometrik) tuzilishini va ulardagi element atomlarining valentligi va oksidlanish darajasini topish samarali deb hisoblayman.

Kalit so‘zlar: grafik formula, valentlik, element, oksidlanish darajasi, model.

Kimyo fani 7-sinfdan boshlanishi barchamizga ma’lum. Bu yerda bir savol paydo bo‘lishi mumkin. Nimaga bu yerda har xil sinflar uchun mo‘ljallangan mavzular mavjud? Bu mavzularni umumlashtirib o‘tish yaxshi samara berishi mumkin. Chunki bu mavzularning o‘zaro bog‘liqlikka ega ekanini esdan chiqarmaganimiz maql. O‘quvchilarimiz kichik sinf bo‘lsin, hoh katta sinf bo‘lsin bu usul ularga birdek asqotadi. Tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirilishi o‘quvchida kimyoviy bilimlar poydevori bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilarimizning qiziqishi va yangilikga o‘chligini ham inobatga olishimiz kerak.


Bizga darsimizni tashkillashtirish uchun element atomlarining modellarini kerak bo‘ladi. Bu modellar kichkina rangli sharlar ko‘rinishida bo‘lishi barchamizga ma’lum. Asosan ularning turli xil rangda bo‘lishi o‘quvchilarining diqqatini tortadi va qiziqishini oshiradi. Agar mакtabda bunday jihozlar bo‘lmasa mobil telefon yoki planshet orqali internetdan “Molecular Constructor” dasturini yuklab olamiz. Dasturni aktivlashtirib modda molekulalarining modellarini tuzamiz. Bunda o‘quvchilar modda modellarini 3D (uch o‘lchamli) tasvirini ko‘radilar. Agar mакtabimizda rangli sharchalar bo‘lsa modda formulalaridan kelib chiqqan holatda o‘quvchilarimizning o‘zi ham bu jarayonda qatnashib ko‘rishi mumkin bo‘ladi.

Bu metod o‘quvchilarimizning fikrashi va dunyoqarashini kengayishiga yordam beradi. Dastlab o‘quvchilar qaysi rangli sharcha qaysi elementga taalluqli ekanini bilishi lozim. Rangli sharchalar element ranggiga mos bo‘lsa, nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi. Chunki o‘quvchi shu yerda element ranggini ham bilib oladi. Lekin agregat holati gaz bo‘lgan rangsiz elementlarimiz ham bor albatta. Bu elementlarimiz uchun istisno sifatida biror bir rangni tanlaymiz. Misol uchun (kislород va vodorod). Mana o‘sha sharchalar






Bulardan modda molekulalarini hosil qilishda foydalanamiz. Eng oddiy tuzulishga ega bo‘lgan moddamizdan boshlaymiz. Ya’ni suv molekulasining modelini tuzamiz.




Bu yerda ko‘rib turganimizdek, bir atom kislorod va ikki atom vodoroddan iborat molekula joy olgan. Bitta kislorod atomi ikkita vodorod atomi bilan bog‘langan. Bu modelga qarab o‘quvchilarga kislorodning 2 valentli ekanini vodorodning esa 1 valentli ekanini tushuntirishimiz oson bo‘ladi. Yuqorida ko‘rinib turganidek, ko‘rsatkich chiziqlar vodoroddan kislorod tomonga yo‘nalgan, bu esa o‘z navbatida kislorodning elektromanfiyligi vodorodning elektromanfiyligidan katta ekanini bildiradi. Demak kislorod ikkita vodoroddan elektron tortib oladi va -2 oksidlanish darajasiga ega bo‘ladi, vodorodlar esa har biri +1 oksidlanish darajasiga ega bo‘ladi.

Keyingi tuzulishimiz ammiak (NH_3) molekulasining modeli xisoblanadi.




Yuqoridagi suratda ko‘rinib turibdiki, ammiak molekulasining fazoviy tuzulishi “Piramida” ko‘rinishida bo‘ladi. Buni azot va vodorod atomlarining joylashishidan ham bilish mumkin.

NH_3 - ammiak



Ammiak molekulasida bitta azot atomi va uchta vodorod atomi mavjud. Yuqoridagi ammiakning tuzulish formulasida ko‘rsatkich chiziqlar vodorod atomlaridan azot atomlari tomon yo‘nalgan, bu nimani anglatadi degan savol paydo bo‘lishi tabiiy. Bu azotning elektromanfiyligi vodorodning elektromanfiyligidan katta ekanligini bildiradi. Shuning uchun azot atomi uchta vodorod atomidan elektron tortib oladi va natijada -3 oksidlanish darajasiga ega bo‘ladi, vodorod atomlari esa elektron bergenligi uchun har biri +1 oksidlanish darajasiga ega bo‘ladi. Bitta azot atomiga uchta kimyoviy bog‘ taalluqli, shuning uchun u 3 valentlikni namoyon qiladi.



Bu metodni yuqori sinf o‘quvchilariga ham qo‘llash mumkin. Misol uchun 10-sinfda “Organik kimyo” o‘tilishi barchamizga ma’lum.



Yuqorida metan (CH_4) molekulasining fazoviy tuzulishi keltirilgan. O‘quvchilar bu modelni ko‘rib, uglerodning 4 valentli ekanligini, fazoviy tuzulishi esa tetraedrik ekanligini oson tushunib oladi. Uglerodning oksidlanish darjasasi nimaga -4 bo‘lishining asosiy sababini uglerod elektromanfiyligi vodorod elektromanfiyligidan katta ekanligi, uglerod to‘rtta vodorod atomidan elektron tortib olishini aytib oson tushuntirish mumkin.



Murakkab tuzulishga ega bo‘lgan benzol molekulasini olaylik, barchamizga ma’lumki benzol C_6H_6 formula bilan ifodalanadi. Zamonaviy fizik usullar yordamida benzol molekulasi siklik tuzulishga ega ekanligi va undagi oltita uglerod atomining hammasi bir tekislikda joylashganligi aniqlandi.



Tasvirdan ham ko‘rinib turibdiki, molekula 6 ta uglerod va 6 ta vodorod atomlaridan tashkil topgan. Benzol molekulasida har bir uglerod atomi -1, har bir vodorod atomi esa +1 oksidlanish darajasini namoyon qiladi. Molekulada uglerod atomi IV, vodorod atomi I valentliklarni namoyon qiladi. Bularni benzol molekulasining modeli (tuzilishi) orqali tushuntirish juda oson.

Xulosa shundan iboratki, bu usul Anorganik va Organik kimyoda ham o‘z samarasini bergan. Bunda o‘quvchi modda molekulalarining modellarini ko‘radi va unda tasavvur paydo bo‘la boshlaydi. O‘quvchi eshitgan narsadan ko‘ra, ko‘proq ko‘rgan narsasini eslab qoladi. Bu kabi jihozlar o‘quvchilarda albatta qiziquvchanlik, savodxonlik, tezkorlik va yod olish kabi foydali sifatlarini oshiradi deb o‘ylayman va kimyo fani o‘qituvchilariga tavsiya qilaman.

Foydalanaligan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kimyo. Oliy o‘quv yurtlariga kiruvchilar uchun G.P.Xomchenko, I.G.Xomchenko tarj.A.Raximov. Toshkent- 2011
2. Anorganik kimyo N.A.Parpiyev , A.G.Muftaxov, H.R.Rahimov. Toshkent -2003
3. Organik kimyo A.Mutalibov, E.Murodov, S.Masharipov Toshkent-2017
4. www.ziyonet.uz



O'QITUVCHILARNING IJODIY FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARNING IMKONIYATLARI

To'xtasinova Sanoatxon Otabekovna Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani 22 – maktab kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada o'qituvchilarning ijodiy fikrlashini shakllantirishda interfaol metodlarning imkoniyatlari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lif sifati, interfaol metodlar, zamonaviy ta'lif, zamonaviy o'qituvchi, ta'limga islohotlar.

Ta'lim islohatlarining zamonaviy bosqichi jamiyatda yuz berayotgan yangilanishlarning tezkorligi ta'lim muassalarida qo'yilayotgan yangi, yanada yuqori talablarga tezroq moslashish bilan bog'liq dolzarb vazifalarni ilgari surmoqda. Bunday sharoitlarda ta'lim muassasini rivojlantirish va zamon talablari darajasida faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar salmog'I uzuksiz ortib boradi. Qo'yilayotgan vazifalarni diyarli barchasi, tamoil jihatdan, yangi talablarni keltirib chiqadi va ularni hal qilishda jamoaning faqatgina mavjud tajriba asosida ish ko'rishi yetarli bo'lmay qolmaydi." Bugun oldimizga turgan o'ta muhim , ulkan vazifalardan yana biri- bizning o'rnimizga kelayotgan, o'z fikri, o'z dunyoqarashi, zamonaviy bilim va tafakkurga ega bo'lgan yangi avlod tarbiyasidir"

Ta'lim tarbiya sohasidagi asosiy masalalardan biri –o'quvchilardan fikrlashni tarbiyalash-ularni komil inson bo'lib ulg'ayishlarini ta'minlovchi mezonlardan biridir . Bundan tashqari o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shaklantirish ularni o'z vatan va xalqiga sadoqatli, mustaqil va ijodiy fikrlovchi, axloqli, vijdonliva irodali inson bo'lib yetishishlaridagi muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnalogiyalarini o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o’quvchi va talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga qaratilgan bo’lsa zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o’zları qidirib topishlariga, mustaqil o’rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o’zları chiqarishlariga o’rgatadi.

O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi , bilim olishi va tarbiyalanishiga sharait yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik yo'naltiruvchilik funk siyasini bajaradi. Ta'lif jarayonda o'quvchi va talabalar asosiy shaxsga aylanadi. Shuning uchun kasb hunar kollejlari kichik mutaxassislarida ijodiy fikrlashni shakllantirishda zamonaviy o'qitish usuli hisoblangan innovatsion texnologiyalarning va ularning tarkibiy qismi bo'lgan interfaol metodlarning ahamiyati benihoya kattadir . Pedagogik texnalogiya va pedagogik mahoratga oid bilim ,tajriba va interfaol usullar o'quvchi ,talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lislilarini, ularning ijodiy faoliyklarini shakllantirishni ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik' o'zgarishlar kiritish bo'lib uni amalga oshirishda asosiy interfaol usullardan to'liq foydalilaniladi. Interfaol metodlar- bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritildi, ya'ni u pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning o'ziga xosligi, ular faqat pedagog hamkorlik jaravoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quvidagilar kiradi:

O'quvchilarni dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilishva izlanishga majbur etishi:

O'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlar doimiylgini ta'minlashi;

Ularni bilimga bo'lgan qiziqini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

Pedagog va o'quvchi talabalarning doimo hamkorlikda tashkillashtirilishi.

O'qituvchi belgilangan maqsad bo'yicha natijaga erishish uchun qanday texnologiyani tanlashi uning ixtiyorida bo'lib bunda o'quvchilarning bilim doirasi, guruh xarakteri va mavjud sharoitga qarab amalga oshiriladi

Masalan, ta'lim-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun, balki kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki tarqatma material, chizma plakatlar turli adabiyotlar, axborot texnologiyalari kerak bo'lar.



Bunday ta’lim tarbiya jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur bo’lib, bu jarayonda o’qilayotgan predmetining o’ziga xos tomonlarijoy va sharoitni mavjud axborot texnologiyalarini, eng asosiysi, o’quvchining imkoniyat va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishni hisobga olib kerak. Faqat shundagina ta’lim jarayonida kafolatlangan natijaga erishish va o’quvchilarni ta’lim jarayonida kafolatlangan natijaga erishish va o’quvchilarni ta’lim jarayonining markaziga olib chiqish mumkin bo’ladi. Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurush o’quvchilarning bilish faoliyatini mavzu bo’yicha belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan **o’qitish metodlari** yordamida tashkil etish demakdir. O’qitish metodlari o’z mohiyati va mazmuniga ko’ra ma’lum pedagogik nazaryaga asoslangan u yoki bu tasnifga tegishli bo’ladi. Ularning samaradorligi to’g’risida fikr yuritilganda o’qitish jarayonida izga soladigan va uni maqsadli yunaltira oladigan, o’qituvchi va o’quvchining hamkorlikdagi faoliyatini ta’minlash asosida jamiyat tomonidan maktab(kasb hunar koliji, oliy o’quv yurtlari) oldiga qo’yilayotgan maqsadga nechog’lik erishilayotganini ko’zda tutush kerak. O’qitish metodi dastlab pedagog ongida faoliyatning umumlashgan loyihasi tarzida mavjud bo’ladi. Bu loyiha amaliyatga o’qituvchi va o’quvchi faoliyatlarining o’zoro tutashuvchi tekisligida o’qitish va o’qishning aniq harakatlar, amallar yoki usu llar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metodning boshqa namoyon bo’lish shakllari yo’q, sababi umumiyligi holda o’qitish metodi o’zida faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi.

Muammoga oid ko’pchilik adabiyotlarda o’qitish metodlari faol va sust guruhlarga ajratish hollari mavjud. Agar har bir metod belgilangan u yoki bu maqsadni yechishda o’z o’mida ishlatilsa, shubhasiz, faoldir. Pedagogik texnologiyalar ham darsda o’quvchilar faolligining yuqori darajasini oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratiladi.

Foydalilanlgan adabiyotlar:

1. Borisov I.N. «Kimyo o’qitish uslubiyoti». T.: «O’qituvchi». 1966.
2. Abdullayev Sh.B. «Kimyo o’qitish uslubiyotidan ma’ruzalar matni». Namangan ,Faxrizoda xususiy kichik korxonasi, 2002.



GEOGRAFIYA VA KIMYO FANLARINI O'QITISHDA DAVRA SUHBATI METODI

Xusanova Muqaddam

Toshkent viloyati Ohangaron tumani
26 – maktab geografiya fani o'qituvchisi

Sulaymonova Nargiza

Toshkent viloyati Ohangaron tumani
26 – maktab kimyo fani o'qituvchisi


Annotatsiya: ushbu maqolada geografiya va kimyo fanlarini o'qitishda davra suhbati metodlaridan foydalanish texnologiyasi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, davra suhbati, davra suhbatini afzalliklari.

Biz bilamizki, hozirgi kunda har bir darsning zamonaviy ta'limgan texnologiyalari asosida tashkil etish zamон talabi hisoblanadi. Shunday ekan biz ushbu maqola orqali zamonaviy ta'limgan texnologiyasi haqida yoritilgan.

“Davra suhbati” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'limgan oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'limgan oluvchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi”ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'limgan beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'limgan oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'limgan oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'limgan oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'limgan oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



Belgilari:
1-ta'limgan oluvchilar
2-aylana stol

Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'limgan oluvchiga konvert qog'ozni beriladi. Har bir ta'limgan oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'limgan oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'limgan oluvchi o'z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'limgan oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida “Davra suhbati” metodining tuzilmasi keltirilgan.

“Davra suhbati” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.
2. Ta'limgan oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta'limgan oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta'limgan oluvchi bo'lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. Ta'limgan oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o'z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta'limgan oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta'limgan oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'limgan oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta'limgan oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'limgan oluvchiga uzatadi.



7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagи “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'ektiv baholashi mumkin.

“Davra suhbati” metodining afzalliklari:

- o'tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta'lim oluvchi o'zining baholanishi mas'uliyatini his etadi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

“Davra suhbati” metodining kamchiliklari:

- ko'p vaqt talab etiladi;
- ta'lim beruvchining o'zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnalogiya. Monografiya Toshkent ,2003.
2. Asqarov I.R., To'xtaboyev N.X., G'ofurov K.G. 9-sinf uchun darslik. Toshkent. 2019

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 21-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000